

XORAZMSHOHLAR DAVLATIDAGI IJTIMOYIY-SIYOSIY TERMINLAR XUSUSIDA

Mo‘minova Oydin Qurbonovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, f.f.n.

aydinmuminova@mail.ru

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Xorazmshohlar davlati, xususan, Jaloliddin Manguberdi davlatida qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy terminlar, aynan, mansab va unvonlar tizimi to‘g‘risida manbalarga suyanilgan holda mulohaza yuritiladi. O‘sha davrda turkiy so‘zlar vazifa doirasining kengayishi, ma‘muriy-boshqaruv tizimida arab va fors leksikasining keng ishlatilganligi va ularga affikslar qo‘shilishi natijasida yangi terminlar va leksemalar yasalishi yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** mansab, unvon, nom, sulton, ustozdor, otabek, xonadon a‘zolari, hojib, tashtdor.*

XI asrning oxiri va XIII asrning boshlarida Xorazmshohlar davlati gullab-yashnadi. Mamlakat ravnaqi va farovonligi dastavval ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘lsa, uning madaniy-ma‘naviy saviyasi jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi bilan o‘lchanadi. Sharq renessansi markazlaridan biri bo‘lgan Ko‘hna Xorazm ham jahon tarixiga buyuk siymolarni, davlat arboblarni va jasur sarkardalarni yetkazib bergan yuksak madaniyatli davlat bo‘lib tanilgan. Xorazmshohlar davlati, xususan sulton Jaloliddin Manguberdi haqidagi ma‘lumotlar oz bo‘lsa-da, bizgacha yetib kelgan. Jaloliddin Manguberdi davlatining ma‘muriy tuzilishi, boshqarilish tartibi hamda ijtimoiy-siyosiy munosabatlari masalasi tarixini o‘rganish, tahlil etish mansab va unvon nomlarini o‘rganish bo‘yicha ham muhim ilmiy izlanishlar sohasi hisoblanadi. Mansab va unvon nomlarini ifodalovchi terminlar bevosita davlatning ijtimoiy-siyosiy tuzumi bilan bog‘liqdir. Ijtimoiy tabaqa, qatlamlar jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida davlat boshqaruvidan tortib ishlab chiqarish, savdo-sotiq singari munosabatlarda muhim rol o‘ynagan. O‘zbek xonliklari orasida o‘ziga xos mavqyega ega bo‘lgan Xorazm xonligi misolida bu masalani tadqiq qilish o‘ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdi davlatida qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy terminlar, aynan, mansab va unvonlar tizimi xususida manbalarga suyanilgan holda mulohaza yuritmoqchimiz.(1)

Manbalarda e‘tirof qilinishicha, Sulton Jaloliddinga Eronning Ozarbayjon, Arron, Iroqi Ajam, Xuroson, Mozandaron, Nasa, Nishopur, Kirmon, Fors viloyatlari

qarashli bo'lgan. Jaloliddin viloyatlarga o'z xonadoniga mansub kishilarni emas, balki noib va vazirlarni hokim etib tayinladi. Shu tariqa sulton markazlashtiruvchi bir siyosat yurgizdi. Xonlikda "xizmatdor kishilar" umumiy nom bilan "sipoh" deb yuritilgan. Ya'ni bu toifa ruhoniylar (ulamo) hamda fuqaro (oddiy xalq) toifasidan, avvalo, davlat boshqaruvining markaziy va mahalliy tizimi iyerarxiyasida bajargan vazifasi, darajasi va boshqa ijtimoiy belgilari bilan ajralib turgan. Bu qatlam vakillari asosan boshqaruv tizimida fuqarolik va harbiy ishlarni yuritgan bo'lib, sultonning birinchi amaldori bo'lgan qushbegidan tortib yuzboshi mansabigacha bo'lgan amal va vazifalarni bajarishgan. "Sipoh" qatlami ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra oliynasab va oddiy toifasiga bo'lingan. Jaloliddin Kirmon va Fors viloyatlarini tobe otabeklar vositasida idora qildi. Sulton bu mintaqalarni o'z imperiyasiga butunlay qo'shib ololmadi. Ko'rib turganimizdek, Xorazmshohlar davrida ham XI-XIII asrlarda keng ishlatilgan tub turkiycha terminlarning faol bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Mazkur leksema xonlar saroyida oliy mansablardan biri, xonning maslahatchisi ma'nosida qo'llangan.(2, 53) XIX asr Xiva xonligining ma'muriy-boshqaruv tizimida ham otabek leksemasining otaliq shakli orqali ifodalanganligi ma'lum.(3, 2)

Manbalarda Xorazmshohlar saroyida turli mansab va unvonlar haqida qiziqarli ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Davlat boshqaruviga oid mansab va unvon nomlari guruhini kichikroq guruhlarga ajratish mazkur mavzuiy guruh haqida to'liqroq ma'lumot olishga yordam beradi. Bular quyidagilar:

a) *Xonadon a'zolari*. Turkiy hokimiyat an'anasiga ko'ra, davlat hukmron sulola a'zolarining barchasiga tegishli hisoblangan. Xonadonning bunday yuksak darajasiga muvofiq, sulola a'zolari zamona urf-odatlariga ko'ra saroyda eng yuqori mavqeni egallagan. Hukmdorning onasi (*xotun*), umr yo'ldoshi, farzandlari (*shahzodalar*) xonadon a'zolari hisoblangan. Bundan tashqari sultonning aka-ukalari, amaki-jiyanlari ham xonadon mansublari edilar.

b) *Hojiblar*. (Hojib arabcha so'z bo'lib, xizmatkor; darvozabon, eshik qorovuli; xon eshigidagi xodim, mahram degan ma'nolarni anglatadi(3, 544). Xorazmshohlar davlatidagi yuksak mansablardan biri bosh hojib yoki ulug' hojib edi. Odatda, hojib turkiylardan tayinlanar edi. Hojiblar saroy g'ulomlari orasidan tanlab olingani va tayyorlangani e'tiborga olinsa, hojiblik muassasasi bu davrda mazmunan o'zgarib, kengaygani ma'lum bo'ladi. Buning natijasi o'laroq, hatto, Jaloliddin uning zamonasigacha hech ko'rilmagan bir ishni amalga oshirdi, ya'ni hojiblar orasidan bir kishini vazir lavozimiga tayinladi. Uning vaziri Sharafulmulk ilgari hojib bo'lgan edi. Hojiblarga g'oyatda muhim vazifalar, masalan, hojib Xorazmshohga shaxsiy topshiriqlari qanday bajarilayotgani haqida axborot berar, qabul marosimlarini tashkil etar edi. Maxsus muzokaralar olib borish va hatto vazirlar faoliyatini taftish qilish kabi

ishlar topshirilgan. Xorazmshohning bir necha hojiblari bo'lardi. Ular doimo sultonga hamroh bo'lib yurishar, uning eng muhim topshiriqlarini bajarar edi. Shuningdek, hojib lavozimidagi amaldorlarga butun bir viloyat noibliigi topshirilgani ma'lum (1, 132). Jaloliddin davrida eng katta hojibga "xos hojib" yoki "hojibi xos" deb murojaat qilingan. Hojibi xos hukmdorning qabul marosimlarini tashkil etar va marosim qatnashchilarining o'z mavqeyiga mos holda joy olishlarini ta'min qilar edi. Sultonga keltirilgan hadyalarni elchilardan olib, hukmdorga bitta-bitta sanab ko'rsatish ham xos hojibning vazifalaridan biri edi. Yuqori davlat mansablariga oliy tabaqa yoki urug'dorlikka mansub bo'lmagan amirga yaqin kishilar ham tayinlangani tadqiqotlarda aniqlandi. Yana qaysi tabaqaga mansubligidan qat'i nazar, iqtidorli kishilar ham yuqori davlat darajalarini egallashga muvaffaq bo'lishgan. Fikrimizcha, boshqaruv lavozimlardagi bunday almashinuv holati urug'-qabilachilik munosabatlari, mahalliy zodagonlar tomonidan fitna uyushtirilishining oldini olish va sulola xavfsizligini saqlashga xizmat qilgan.

g) *Mahramlar*. Jaloliddinning saroyida mahramlari ham bo'lgan. Ularga "xodimoni xos" ham deyilgan. Mahramlar "malikul xos" unvoniga ega bo'lganlar. Jaloliddin o'z mahramlariga turli-tuman muvaqqat vazifalarni topshirib turgan. Masalan, u Hindistondan qaytgach, ukasi G'iyosiddinni itoat ostiga olish uchun mahramlaridan Adaqni yo'llagan va ukasini ishontirishga harakat qilgan. Bundan tashqari sulton mahramlaridan Badriddin va Tojiddinlarni elchilik va "bashorati fath" vazifasiga tayinlagani haqida ma'lumotlar bor.

e) *Saroy amirlari*. Saroy xodimiga mansub bu amirlar to'g'ridan-to'g'ri hukmdorga bo'ysungan. Saroy amirlari o'z xizmat lavozimi va unvoniga ko'ra quyidagicha bo'lgan:

Ustozdor Xorazmshohlar saroyida xizmatkorlar va g'ulomlarga bosh bo'lib, xazinaga tushgan foydadan va soliq tushumlaridan muayyan bir qismini olib, bu mablag'ni saroy oshxonasi, novvoyxonalar, sharobxonalar, otxonalar, saroydagi barcha xizmatchilarning sarf-xarajatiga ajratgan. Va evaziga qancha pul ishlatgani haqida ulardan muhr bosilgan tilxat yozdirib olardi. U bunday muhrli tilxatlarni vazir, mustavfiy, mushrif, nozir va ularning noiblaridan ham olar edi. Saroydagi lashkarlar, lashkarboshilarga oid chiqimlar tilxati esa arid (harbiy devon) tomonidan muhr bilan tasdiqlanardi (1, 214). Avvalgi tadqiqotimizda *-dor* affiksi ishtirokida yasalgan mansab va unvon nomlarini guruhlashtirganimizda ustozdor mansab nomini biz ko'rgan manbalarda uchratmagandik (2, 88-90).

Amiri oxur (miroxo'r) - sulton otxonalari boshlig'i. Sulton Alouddin Muhammadning miroxo'ri Ixtiyoriddin Qushlu (1, 58) qo'l ostida 30 ming ot bor edi.

Amiri shikor - sulton ovlarini tashkil etuvchi. Hukmdorning ov qurollarini saqlagan va sulton ovga chiqqan paytlari unga hamrohlik qilgan. Ayni zamonda ov

qo'shin uchun harbiy mashq ham hisoblangan. Bu ishni tashkil etish, ov o'tkaziladigan joylarni oldindan ko'zdan kechirish ham shu amirning vazifasi bo'lgan (2, 74). Misollardan sultonlikda forsiy izofali mansab nomlari kabi istilohlardan unumli foylanilganining guvohi bo'lamiz.

Tashtdor - Ushbu lavozim egasi hukmdor qo'l yuvganda unga qumg'on va chilopchin tutgan. Oltindan qilingan bu idishlarning saqlanishi uchun mas'ul bo'lgan (4, 73-74). Tashtdor - sulton hammomlari va hovuzlarining boshlig'i. Uning qo'l ostida bir necha g'ulom bo'lgan. Tashtdorlik mansabiga sulton juda ishonchli odamlarini tayinlar edi. Chunki tashtdor xizmati bilan bog'liq barcha xarajatlar Xorazm viloyatidan tushadigan soliqlar bilan qoplanardi (5, 143-144).

Sharobdor - sulton sharobxonasining boshlig'i va kuzatuvchisi.

Dovoddor - sultonlikda yozuv qurollarini tashuvchi odam. (1, 350)

Hukmdorning yozuv-chizuv asboblari shay bo'lishi va saqlanishi uchun javobgar shaxsdir.

Qissador - bir hafta davomida sulton nomiga yozilgan ariza, shikoyatlar va iltimosnomalarni yig'ib olib, Sultonga yetkazib beruvchi hamda undan tegishli javoblarni oluvchi mansabdor. Bu mansab ancha obro'li bo'lib, urushlar bo'lmagan, tinchlik paytlarida egasiga ko'p daromad keltirgan. (1,133).

Nozir - moliyaviy ishlar bo'yicha amaldor (1, 133).

Choshnigir - sulton taomlarini tatib ko'ruvchi. (1, 361) U dasturxon yozilganida sulton taomlardan zaharlanmasligi uchun o'zi birinchi bo'lib tatib ko'rar edi. Sulton Jaloliddinning choshnigiri Sayfiddin To'g'ul edi (1, 133).

Omil - devonda moliyaviy rahbarlar ichida eng kichik vazifa. Har bir tuman, shahar, aholi yashaydigan maskan, qishloqning soliq yig'ish bo'yicha rahbari bo'lgan (1, 314).

Mushrif - devonda moliyaviy nazorat ishlarida xizmat qiladigan shaxs mansabi (1, 321).

Farrosh - sulton o'rin-to'shaklari saqlanadigan farroshxona boshlig'i. Uning ixtiyorida gilamlar, chodirlar; ko'rpa-to'shaklar bo'lgan. Farrosh va maxsus o'rgatilgan g'ulomlar sulton atrofida doimo hozir turar edilar.

Faqihlar - davr an'anasiga muvofiq, sulton saroyida islom huquqi (fiqh) ilmi ustozlari - faqihlar ham ishlaganiga oid ba'zi ma'lumotlar mavjud. Masalan, sulton faqih Najmiddin Xorazmiyni Amidga, faqih Rukniddinni saljuq sultoni Alouddin Qayqubod huzuriga elchi qilib yuborgan (1, 133).

Munajjimlar - Zamona zayliga muvofiq Jaloliddin saroyida munajjimlar ham bo'lgan. Zotan, sulton munajjimlarning so'zidan chiqmas, ularning romlariga astoydil ishonar edi. Masalan, Isfaxon yaqinida mo'g'ullar bilan to'qnashganlarida munajjimlar

sultonga uch kun kutib, to'rtinchi kuni jang boshlashni tavsiya etdilar. Sulton ham ularning so'ziga kirib, zafar soatini kutdi, ammo g'alabani boy berdi (1, 75).

Mustahdamlar - saroyning umumiy ishlari bilan shug'ullangan xizmatchilarga muqaddimi chovushon boshchilik qilardi. Uning qo'l ostida chovushlar va mustahdamlar xizmat qilgan. Binobarin, armiyada chovush unvonli kichik lavozimlar bo'lganidek, saroyda ham chovushlar xizmat qilgan. Ular safarda sultonga hamrohlik qilganlar, choparlik xizmatini o'taganlar.

Mehtari mehtaron - sultonning xos xizmatchilari bo'lgan mehtarlarning boshlig'i edi. Sultonning bulardan boshqa xodimlari ham bo'lgan. (1, 75)

Sulton Alouddin, shuningdek Jaloliddin davrida saroy amirlariga amir va malik rutbalaridan ham yuksakroq bo'lgan xon unvoni ham berilgan. (4, 74) Ko'rinib turibdiki, ushbu davrda xon termini oliy hukmdor ma'nosini anglatishda qo'llanmagan. (qarang: 2, 16)

Demak, Sulton Jaloliddin davridagi davlat boshqaruvida avvalgi sulolalar boshqaruvidan bir oz farqli tizim bo'lgan. Zero, bunga o'sha davrdagi voqelik sabab bo'lgan. Shunga ko'ra ijtimoiy-siyosiy terminologiyada ham bu narsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya umumleksikaning asosiy bo'lagi hisoblanadi. Terminlar umumiste'moldagi so'zlar bilan uzviy munosabatga kirishgan holda shakllanadi, taraqqiy etadi. Xorazmshohlar davlatida qo'llangan ijtimoiy-siyosiy terminlarni, ya'ni mansab va unvon nomlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Muayyan mansab va unvonni nomlash uchun hosil qilingan maxsus terminlar (otabek, ustozdor).
2. O'zlashgan terminlar (miroxo'r, mehtar, rais, nozir)

Shunday qilib, jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida o'ziga xos leksik qatlam u yoki bu darajada o'z vazifasini ado etganidek, manbalarda qayd etilgan yuqoridagi kabi terminlar ham o'z xususiyatlariga ega bo'lgan. O'sha davrda turkiy so'zlar vazifa doirasining kengayishi, ma'muriy-boshqaruv tizimida arab va fors leksikasining keng ishlatilganligi va ularga affikslar qo'shilishi natijasida yangi terminlar va leksemalar yasalishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shixab ad-din an-Nasavi. Jizneopisaniye sultana Djala ad-Dina Mankburni. /Perevod Z.Buniyatova. Baku. 1973. Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. -T.: O‘zbekiston. 44-bob. 2006. Juvayniy. 1-tom, 278-sahifa. Tarixi jahon go‘shoy. -Leyden-London. 2-jild, 1916.
2. Mo‘minova O. O‘zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tarkibi. -T.: Aloqachi, 2009.
3. XIX asr Xiva hujjatlari. -T.:Fan. -T.2. 1960.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -T.:O‘zME, 2008.
5. Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. (Turk tilidan Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi). T.: Sharq, 1999, 74-bet.
6. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T.: Sharq. 2000.